

**OLIY TA'LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA  
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR  
BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.PED.33.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH  
ASOSIDA TUZILGAN BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**OLIY TA'LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA  
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

**MATNAZAROVA MEHRIBON BAXTIYOROVNA**

**OLIY TA'LIMNI XALQAROLASHTIRISH SHAROITIDA  
INTELLEKTUAL HARAKATCHANLIKNI RIVOJLANTIRISHNI  
BOSHQARISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.07 – Ta'limda menejment**

**PEDAGOGIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2026**

**Pedagogika fanlari doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)  
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the Doctor of Pedagogical Sciences (DSc)**

**Matnazarova Mehribon Baxtiyarovna**

Oliy ta’limni xalqarolashtirish sharoitida intellektual mobillikni rivojlantirish menejmenti mexanizmlarini takomillashtirish ..... 3

**Матназарова Мехрибон Бахтияровна**

Совершенствование механизмов менеджмента развития интеллектуальной мобильности в условиях интернационализации высшего образования ..... 33

**Matnazarova Mekhribon Bakhtiyarovna**

Improving management mechanisms for the development of intellectual mobility in the context of the internationalization of higher education..... 65

**E’lon qilingan ishlar ro‘uxati**

**Список опубликованных работ**

List of published works ..... 70

**OLIV TA'LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA  
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIV DARAJALAR  
BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.PED.33.01 RAQAMLI ILMIV KENGASH  
ASOSIDA TUZILGAN BIR MARTALIK ILMIV KENGASH**

---

**OLIV TA'LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA  
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

**MATNAZAROVA MEHRIBON BAXTIYOROVNA**

**OLIV TA'LIMNI XALQAROLASHTIRISH SHAROITIDA  
INTELLEKTUAL HARAKATCHANLIKNI RIVOJLANTIRISHNI  
BOSHQARISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.07 – Ta'limda menejment**

**PEDAGOGIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent - 2026**

Fan doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4DSc/Ped1033 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.bimm.uz) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

<b>Ilmiy maslahatchi:</b>	<b>Begimkulov Uzokboy Shoimkulovich</b> pedagogika fanlari doktori, professor
<b>Rasmiy opponentlar:</b>	<b>Djurayev Rishay Xaydarovich</b> pedagogika fanlari doktori, akademik <b>Ismailova Zuhra Karabaevna</b> pedagogika fanlari doktori, professor <b>Adizov Baxtiyor Raxmonovich</b> pedagogika fanlari doktori, professor
<b>Yetakchi tashkilot:</b>	<b>O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi</b>

Dissertatsiya himoyasi Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.Ped.33.01 raqamli Ilmiy kengash asosida tuzilgan bir martalik ilmiy kengashning 2026-yil 29 04 soat 14:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi, 3-uy. Tel.: (+998) 71 202-01-20, faks: (+998) 71 202-01-21; e-mail: info@bimm.uz.)

Dissertatsiya bilan Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (31 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi, 3-uy. Tel.: (+998) 71 202-01-20, faks: (+998) 71 202-01-21; e-mail: info@bimm.uz.)

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil 30 aprel kuni tarqatildi.  
(2026-yil aprel dagi № 4 raqamli reyestr bayonnomasi).



**Sh.Q. Mardonov**  
Ilmiy kengash beruvchi ilmiy  
doktori, p.f.d., professor.

**D.A. Mustafoyeva**  
Ilmiy kengash beruvchi ilmiy  
doktori, p.f.d., dotsent.

**F.R. Yuzlikoev**  
Ilmiy kengash beruvchi ilmiy  
doktori, p.f.d., professor.

## KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon ta'lim muassasalarida oliy ta'limni xalqarolashtirish sharoitida intellektual mobillikni rivojlantirish menejmenti mexanizmlari ilg'or texnologiyalar asosida amaliyotga joriy etilmoqda. UNESCO va Xalqaro universitetlar assotsiatsiyasi (IAU) dasturlarida ta'lim texnologiyalarini qo'llash<sup>1</sup> orqali samaradorlikni oshirish masalalari qayd etilgan bo'lib, ta'lim jarayonlarini zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etish, ta'lim muassasalarini boshqarishning muqobil mexanizmlarini joriy etish va mutaxassislar tayyorlash jarayonini takomillashtirishga qaratilgan tizimli ishlar olib borilmoqda. Ta'lim tizimi raqobatbardoshligini oshirishning asosiy omili sifatida an'anaviy ta'lim usullaridan raqamli texnologiyalar va global fuqarolik tamoyillariga asoslangan harakatchan, faol ta'lim muhitiga o'tish jarayoni takomillashtirilmoqda. Globallashtirish tendensiyalari va oliy ta'limni xalqarolashtirish, bilim talab qiluvchi va innovatsion mehnat bozorlariga moslashish, intellektual mobillikni rivojlantirish bo'yicha tizimli tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Jahonda talabalar intellektual mobilligini rivojlantirish, bilim va ko'nikmalarni transformatsiya qilish, xalqaro ta'limiy va ilmiy makonlarga integratsiyalashuv, kreativ va tanqidiy tafakkurni rivojlantirish, shuningdek madaniyatlararo muloqot va munosabatlarni samarali boshqarish bo'yicha tadqiqotlar keng olib borilmoqda. Oliy ta'limni xalqarolashtirish, talabalarning mustaqil ishga motivatsiyasini aniqlash, intellektual mobillik va motivatsiya o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish, transmilliy hamkorlik doirasida akademik mobillik tendensiyalarini tahlil qilish va global ta'lim makoniga moslashuvini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

So'nggi yillarda respublikada xorijiy diplomlarni tan olishning huquqiy asoslari ishlab chiqilmoqda, xalqaro ta'lim tizimlarida ishtirok etish va oliy ta'limni xalqarolashtirishni boshqarish modellari takomillashtirilmoqda. Talaba-yoshlarning intellektual harakatchanligini oshirish uchun shart-sharoitlar yaratilmoqda, jahon ta'lim hamjamiyatiga integratsiyalashuv va milliy oliy ta'lim muassasalarining xalqaro raqobatbardoshligi ustuvor vazifa sifatida belgilangan<sup>2</sup>. Shu munosabat bilan intellektual harakatchanlikni rivojlantirish jarayonlarini optimallashtirish, oliy ta'lim muassasalarining istiqbolli boshqaruv mexanizmlarini aniqlash, ilg'or tajribalar va ta'lim bozori ehtiyojlariga mos raqamlashtirilgan va moslashuvchan infratuzilmani rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari kengaymoqda.

Mazkur dissertatsion tadqiqot ma'lum darajada 2022-yil 28-yanvardagi "Yangi O'zbekistonning 2022–2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi

---

1 IN FOCUS Universities and Agenda 2030: Engaging with the SDGs / IAU 2019 CONFERENCE / Transforming Higher Education for the Future. Vol.24 №1 \* IAU HORIZONS. [https://iau-aiu.net/IMG/pdf/iau\\_horizons\\_vol.24.1\\_en\\_light.pdf](https://iau-aiu.net/IMG/pdf/iau_horizons_vol.24.1_en_light.pdf)

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.10.2019 yildagi PF-5847-sonli «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi Farmoni // <https://lex.uz/ru/docs/4545884>

to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni PF-60, 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF -6108, 2020-yil 29-oktabrdagi "Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF -6097, 2019-yil 11-iyuldagi "Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimida boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" PP-4391, 2019-yil 11-iyuldagi "Oliy va o'rta maxsus ta'lim sohasida boshqaruvni isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida" PF -5763, 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF -5847, 2020-yil 29-oktabrdagi "Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF -6097 va mazkur soha bilan bog'liq boshqa normativ-huquqiy hujjatlardagi belgilangan vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi**<sup>3</sup> Zamonaviy talaba yoshlarining intellektual harakatchanligini rivojlantirish jarayonini takomillashtirishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalarida olib borilmoqda, jumladan, M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti (Rossiya Federatsiyasi), Myunxen Universiteti (LMU-Munich University, Germaniya), Boston Shimoliy-Sharqiy universiteti (Northeastern Universiteti Boston, AQSH), Seul Milliy universiteti (Seoul National University, Janubiy Koreya), Rijents universiteti (Regent Universiteti, Buyuk Britaniya) va boshqalar.

Dunyoda ta'limni xalqarolashtirish sharoitlarida intellektual mobillikni shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar asosida shu jumladan quyidagi ilmiy natijalar olingan: loyihaviy va muammoga yo'naltirilgan ta'lim intellektual mobillikni rivojlantirish texnikasi sifatida tadqiq qilingan va takomillashtirilgan. (M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti, Rossiya Federatsiyasi); ta'lim oluvchilar intellektual mobilligini rivojlantirish

---

<sup>3</sup> Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi quyidagi materiallar asosida amlga oshirilgan: Northeastern University Boston (<https://www.northeastern.edu/>); Munich University (<https://www.lmu.de/de/index.html>); Regents University (<https://www.regents.ac.uk/>); Московский Государственный университет (<https://www.msu.ru/>); Seoul National University (<https://www.snu.ac.kr/index.html>); East China Normal University (<https://english.ecnu.edu.cn/>); [https://www.uned.ac.cr/ocex/images/stories/SINAES\\_1103\\_%20by%20LJY%201.pdf](https://www.uned.ac.cr/ocex/images/stories/SINAES_1103_%20by%20LJY%201.pdf) Vocational Education and Training in Korea: Achieving the Enhancement of National Competitiveness; [https://translate.yandex.ru/Исследовательский\\_проект\\_Имидж\\_современного\\_учителя\\_глазами\\_школьников/](https://translate.yandex.ru/Исследовательский_проект_Имидж_современного_учителя_глазами_школьников/); <https://www.coe.int/t/dg4/education/pesta/Source/Documentation/T21/FinRepEn.pdf> The professional image and ethos of the teachers-Final report; <https://files.eric.ed.gov/fulltext/EJ940569.pdf> A Chinese Teacher's Perspective on Professional Development in Literacy Education; [https://www.cedefop.europa.eu/Developments\\_in\\_vocational\\_education\\_and\\_training\\_policy\\_in\\_2015-19](https://www.cedefop.europa.eu/Developments_in_vocational_education_and_training_policy_in_2015-19); [https://dera.ioe.ac.uk/3426/1/aspect\\_ve\\_-\\_japan.pdf](https://dera.ioe.ac.uk/3426/1/aspect_ve_-_japan.pdf) Aspects of Vocational Education and Training in Japan.

asosida xalqaro va oliy ta'lim muassasalariaro akademik almashuv dasturlari faol ravishda ishlab chiqilmoqda va joriy etilmoqda. (Myunxen Universiteti, Germaniya); individual o'quv traektoriyalarini shakllantirish asosida talabalarning intellektual harakatchanligini rivojlantirish bo'yicha moslashuvchan o'quv rejalari ishlab chiqilgan va joriy etilmoqda (Boston Shimoliy-Sharqiy universiteti, AQSH); o'quv jarayonini raqamlashtirish va uning o'zgaruvchan axborot muhitiga moslashish asosida talabalarning intellektual harakatchanligini rivojlantirishga ta'siri o'rganilmoqda (Seul Milliy universiteti, Janubiy Koreya); talabalar va o'qituvchilarning grantlarni qo'llab-quvvatlash, murabbiylik dasturlari, intellektual harakatchanlikni monitoring qilish tizimlari va talabalarning raqamli portfolio asosida xalqaro va fanlararo dasturlarda ishtirok etishini tartibga soluvchi intellektual harakatchanlikni boshqarish bo'yicha maxsus reglamentlar ishlab chiqilgan va amalga oshirilmoqda (Rijents universiteti, Buyuk Britaniya).

Hozirgi kunda butun dunyoda quyidagi ustuvor yo'nalishlar bo'yicha tadqiqotlar amalga oshirilmoqda: oliy ta'limni xalqarolashtirish sharoitlarida intellektual mobillikni rivojlantirish menejmenti mexanizmlarini takomillashtirish; zamonaviy resurlardan barcha foydalana olishini, innovatsiyalar va gorizontal o'zaro ta'sirni qo'llab-quvvatlashni o'z ichiga olgan motivatsiya beruvchi ta'lim muhitini yaratish; fanlararo va madaniyatlararo kompetensiyalarga yo'naltirilgan universitetlar o'rtasidagi sherikchilikni kengaytirish, bilimlarni baholashning yagona standartlarini joriy etish va ta'lim dasturlarini rivojlantirish; ta'limiy, ilmiy va innovatsion jarayonlarning uzviy integratsiyalashuvi; hamkorlik va birgalikdagi ijodkorlik shart-sharoitlarini ta'minlash; ta'limning faol usullaridan foydalanish; ta'lim jarayonini konstruksiyalashda uning barcha ishtirokchilarining faolligi va o'zaro ta'siri; ta'lim oluvchilarni boshqarish jarayoniga jalb qilish; pedagoglar va talaba-yoshlarning subyekt-subyektli o'zaro ta'siri; ilg'or texnologiyalarni, shu jumladan axborot texnologiyalarni faol qo'llash; ilg'or xorijiy tajribalarni ta'lim amaliyotiga keng jalb qilish.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Respublikamizda uzluksiz ta'lim tizimini transformatsiya qilish masalalari U.Sh.Begimqulov, Sh.Sh.Mirziyoyeva, G.A.Omonova kabi olimlarning asarlarida yoritilgan, qo'shma institutni institutsional modellashtirishdan foydalangan holda mutaxassislarning intellektual harakatchanligining yangi modeli sifatida rivojlantirish jarayoni Y.O'Ismadiyarov, J.M.Begatovning ilmiy izlanishlarida aks ettirilgan, o'quv jarayonida yoshlarning intellektual ijod qilish imkoniyatlarini rivojlantirishning psixologik asoslari D.M.Qodirova, Z.D.Ahmedova ilmiy ishlarida ko'rib chiqilgan.<sup>4</sup>; qo'shma ta'lim dasturlarini yaratish algoritmining xususiyatlari R.G.Mullaxmetov, L.M.Nabiulina kabi olimlarning asarlarida aks ettirilgan,

---

<sup>4</sup> Бегимкулов У.Ш. Мирзиёева Ш.Ш., Оманова Г.А., На пути к формированию экосистемы образования: трансформация непрерывной системы образования в Республике Узбекистан. // Современное образование и общество, 2024. - Т.1. - № 1. - С. 13-18; Исмадияров Я.У. Бегатов Ж.М., Развитие совместного института как новой модели интеллектуальной мобильности специалистов путем применения институционального моделирования. // Problems and solutions of scientific and innovative research. - 2024. - Т.1. - № 6. - С. 97-101.; Кадырова Д.М., Ахмедова З.Д. Психологические основы развития возможностей интеллектуального творчества молодежи в образовательном процессе. // Academy. - 2020. - №5 (56). - С. 43-44. и др.

institutsional modellashtirish orqali oliy ta'limni xalqarolashtirishning zamonaviy sharoitida intellektual harakatchanlikni rivojlantirish masalalari o'z tadqiqotlarida S.B.Rahimmirzaev, Ya.O'Ismaiyarov, L.M.Nabiulina tomonidan ko'rib chiqilgan<sup>5</sup>; harakatchanlikni yaxshilash bo'yicha tavsiyalar D.M.Qosimovaning ilmiy tadqiqotlarida aks ettirilgan; oliy ta'limni xalqarolashtirishni barqaror rivojlantirish uchun intellektual harakatchanlik masalalari U.V.Mannanov, Sh.R.Adilova kabi olimlar tomonidan o'rganilgan<sup>6</sup>.

Zamonaviy gumanitar OTMlari bitiruvchi-talabalari orasida intellektual mobillikni rivojlantirish muammosi E.B.Plotnikova, E.F.Zeer, S.A.Morozova, E.E.Simanyuklar tomonidan o'rganilgan<sup>7</sup>; intellektual mobillik va uning tuzilishi o'qish qobiliyati va o'qishga motivatsiyaning tarkibiy qismi sifatida K.F.Mirakyan, R.N.Abramishvili, N.V.Zajoginlar tadqiqotlarida aks ettirilgan<sup>8</sup>; ta'lim oluvchilarning xorijiy mentalitet va madaniyatga sho'ng'ish jarayonidagi talabalarining akademik mobilligini P.Sh.Gitina, D.A.Gagiyeva, Z.D.Kartoeva, A.A.Zaytsevalar o'rganib chiqqanlar<sup>9</sup>; postkovid akademik mobillik va uning tuzilishi transformatsiyasining asosiy tendentsiyalari va vektorlari A.M.Ryabinina, V.V.Kovel'skiy, N.M.Tyukavkinlar<sup>10</sup> ishlarida aks etgan.

Talaba-yoshlar intellektual mobilligini rivojlantirish kontekstida OTM ta'lim muhitining xususiyatlarini G.E.Mikhnenko, L.T.Tran, T.Kimlar tadqiq qilgan<sup>11</sup>; globallashtirish, xalqarolashtirish va transmilliylik sharoitlarida intellektual

---

<sup>5</sup> Муллахметов Р.Г., Набиулина Л.М., Рахиммирзаев С.Б., и др. Особенности алгоритма создания совместных образовательных программ как инструмента интернационализации высшего образования. // *Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar*. - 2023. - № 9. - С. 162-168; Рахиммирзаев С.Б. Исмадияров Я.У., Набиулина Л.М. Развитие интеллектуальной мобильности в современных условиях интернационализации высшего образования путем институционального моделирования. // *European Journal of Interdisciplinary Research and Development*. - 2024. - Volume 32. - С. 11-15. и др.

<sup>6</sup> Касымова Д.М. Фонд мобильности Узбекистана. // *Современные научные исследования России и Узбекистана*. - 2017. - С. 26; Маннанов У.В., Адилова Ш.Р. Интернационализация высшего образования: к интеллектуальной мобильности для устойчивого развития. // *Непрерывная система образования «Школа - университет». Инновации и перспективы: сборник статей VI Международной научно-практической конференции, Минск, 27-28 октября 2022 г.* - С. 294-297.

<sup>7</sup> Плотникова Е.Б. Об интеллектуальной мобильности выпускников современных гуманитарных вузов. // *Science Time*. - 2015. - №3 (15). - С. 445-451; Зеер Э.Ф., Морозова С.А., Сыманюк Э.Э. Профессиональная мобильность интегральное качество субъекта инновационной деятельности. // *Педагогическое образование в России*. - 2011. - № 5. - С. 90-97.

<sup>8</sup> Миракян К.Ф. Особенности мотивации у студентов: взаимосвязи между интеллектуальной лабильностью и учебной мотивацией у студентов. // *Ученые записки. Электронный научный журнал Курского государственного университета*. - 2022. - № 1 (61). - С. 336-340; Абрамишвили Р.Н., Зажогина Н.В. Интеллектуальная лабильность в профессиональном становлении цифрового поколения. // *Аллея науки*. - 2021. - Т.1. - № 6. - С. 205-210.

<sup>9</sup> Гитина П.Ш., Гагиева Д.А., Картоева З.Д. Академическая мобильность студентов в контексте интернационализации высшего образования. // *Проблемы современного педагогического образования*. - 2023. - № 79-1. - С. 125-129; Зайцева А.А. Академическая мобильность студентов: ценности, установки и социальные практики на Юге России. // *Научный результат. Социология и управление*. - 2022. - Т. 8. - №.3. - С. 137-154.

<sup>10</sup> Рябинина А.М. Тенденции академической мобильности в условиях пандемии COVID-19 на примере МГУ имени М.В. Ломоносова. // *Государственное управление. Электронный вестник*. - 2022. - № 92. - С. 216-238; Ковельский В.В., Тюкавкин Н.М. Интеллектуальный капитал вуза в условиях трансформации рынка инноваций. // *Вестник Самарского университета. Экономика и управление*. - 2022. - Т.13. - № 4. - С. 106-115.

<sup>11</sup> Mikhnenko G.E. Characteristics of a technical university educational environment in the context of the intellectual mobility development. // *Advanced Education*. - 2014. - С. 74-80; Tran L.T. Mobility as 'becoming': A Bourdieuan analysis of the factors shaping international student mobility. // *British journal of sociology of education*.

kapital, intellektual migratsiya, talabalar mobilligi, rivojlanish jarayonlari Y.Tan, L.Lo, W.Li, Y.Tanlar tomonidan o'rganilgan<sup>12</sup>; tengsizlik va xalqaro akademik mobillik o'rtasidagi bog'liqlikning konseptual masalalari Teichler U.Bilecen B., C.Van Mollar tadqiqotlarida aks ettirilgan<sup>13</sup>, xalqaro akademik mobillikning milliy, mintaqaviy va global ta'lim tizimlaridagi roli W.Shen, X.Wang, B.Garnett, M.Adamuti-Trachelar<sup>14</sup> tomonidan tadqiq qilingan.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq IL-4821091576-sonli "Oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimlarida masofaviy texnologiyalardan foydalangan holda ta'lim faoliyatini tashkil qilish" mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan (2022-2024 yy.).

**Tadqiqotning maqsadi** oliy ta'limni xalqarolashtirish sharoitlarida intellektual mobillikni rivojlantirish menejmenti mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqot vazifalari** quyidagilardan iborat:

oliy ta'limning xalqarolashtirish sharoitlarida intellektual mobillikni rivojlantirish menejmenti mexanizmlarini takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash;

oliy ta'limning xalqarolashtirish sharoitlarida intellektual mobillikni rivojlantirish menejmentining ko'p darajali modelini takomillashtirish;

intellektual va akademik mobillikni boshqarish modeli samaradorligini kompetensiyaviy diagnostik indikatorlar hamda ta'limiy analitika asosida baholash mezonlari, ko'rsatkichlari va darajalari tizimini ishlab chiqish;

oliy ta'limni xalqarolashtirish sharoitida uslubiy yondashuvlarni hisobga olgan holda talabalarining intellektual harakatchanligini rivojlantirishni boshqarishning diagnostika vositalarini ishlab chiqish;

motivatsiyalovchi ta'lim muhitini, shu jumladan zamonaviy resurlardan barcha foydalana olishini yaratishga nisbatan turli yondashuvlar sinergiyasini aniqlash.

**Tadqiqot obyekti** sifatida oliy ta'limni xalqarolashtirish sharoitlarida intellektual mobillikni rivojlantirish menejmenti mexanizmlarini takomillashtirish jarayoni olingan bo'lib, tajriba-sinov ishlarida O'zbekiston Milliy universiteti,

---

- 2016. - T.37. - № 8. - C. 1268-1289; Kim T. Academic mobility, transnational identity capital, and stratification under conditions of academic capitalism. // Higher Education. - 2017. - T.73. - № 6. - C. 981-997.

<sup>12</sup> Tan Y. et al. Intellectual capital and student mobility. // Journal of Ethnic and Migration Studies. - 2023. - T. 49. - № 18. - C. 4641-4661; Lo L., Li W., Tan Y. Students on the move? Intellectual migration and international student mobility. // Journal of Ethnic and Migration Studies. - 2023. - T.49. - № 18. - C. 4621-4640.

<sup>13</sup> Teichler U. Academic mobility and migration: What we know and what we do not know. // European review. - 2015. - T.23. - №S1. - C. 36-37; Bilecen B., Van Mol C. Introduction: international academic mobility and inequalities. // Journal of ethnic and migration studies. - 2017. - T.43. - № 8. - C. 1241-1255.

<sup>14</sup> Shen W., Xu X., Wang X. Reconceptualising international academic mobility in the global knowledge system: towards a new research agenda. // Education. - 2022. - T.84. - № 6. - C. 1317-1342; Garnett B., Adamuti-Trache M., Ungerleider C. The academic mobility of students for whom English is not a first language: The roles of ethnicity, language, and class. // Alberta Journal of Educational Research. - 2008. - T.54. - № 3. - C. 123-127.

O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti va Jizzax davlat pedagogika universiteti talabalaridan iborat 673 respondent ishtirok etdi.

**Tadqiqot predmetini** oliy ta’limni xalqarolashtirish sharoitlarida intellektual mobillikni rivojlantirish menejmenti mexanizmlarini takomillashtirishning shakllari, usullari va vositalari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda ilmiy-metodik adabiyotlarni o‘rganish, qiyosiy tahlil, pedagogik kuzatuv, tajriba-sinov testlari tahlili kabi usullardan hamda ijtimoiy usullar (anketa, test, savol-javob, suhbat, intervyu, mikrokeys), pedagogik tajriba-sinov, matematik-statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

oliy ta’limni xalqarolashtirish sharoitida intellektual harakatchanlikni rivojlantirish menejmenti mexanizmlari talabalarning akademik mobilligi, transmilliy ta’lim hamkorligi va raqamli ta’lim ekotizimiga integratsiyasini kuchaytirishga qaratilgan strategik boshqaruv va akademik hamkorlik modellarini joriy etish orqali aniqlashtirilgan;

intellektual harakatchanlikni rivojlantirish menejmentining ko‘p darajali modeli kredit-modul tizimida o‘quv faoliyati ko‘rsatkichlarini muvofiqlashtirishga asoslangan tayanch metodologik, mazmuniy-protsessual va nazorat-dagnostika komponentlari tarkibiga kompetensiyaviy indikatorlar, raqamli monitoring va ta’lim analitikasi mexanizmlarini yakuniy baholash vositalari sifatida kiritish asosida takomillashtirilgan;

intellektual harakatchanlikni rivojlantirish menejmenti jarayoni “Registrator ofisi”ning tashkiliy-boshqaruv mexanizmlari va tarkibiy tuzilma vazifalarini aniqlash orqali akademik mobillikni boshqarish, kompetensiyaviy diagnostik indikatorlardan foydalanish hamda ta’limiy analitikasi va adaptiv boshqaruv texnologiyalarini joriy etish asosida takomillashtirilgan;

oliy ta’limda intellektual harakatchanlikni rivojlantirish menejmentining diagnostik vositalari xalqaro akkreditatsiya talablariga uyg‘un shakllantirilgan transmilliy kompetensiyalar, kognitiv moslashuvchanlik va madaniyatlararo muloqot qobiliyatlarini rivojlanganlik darajasini ta’lim natijalarini baholashning integrativ mezonlari orqali aniqlashtirishga asoslangan platforma sifatida ishlab chiqilgan;

talabalarning intellektual harakatchanligini rivojlantirish menejmentini takomillashtirish bo‘yicha metodik ta’minot adaptiv boshqaruv, global fikrlash, xalqaro kommunikatsiya kompetensiyalarini shakllantirishni qo‘llab-quvvatlovchi ta’lim resurslarini yaratishga sinergetik yondashuvni amalga oshirish asosida ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

oliy ta’limni xalqarolashtirish sharoitida zamonaviy talaba-yoshlarning intellektual harakatchanligini rivojlantirishning konseptual asoslari ishlab chiqildi, ular metodologik, mazmuniy-protsessual va nazorat-dagnostika quyi tizimlarini, shuningdek, ushbu jarayonning dolzarb yondashuvlari, faoliyat darajalari, tamoyillar guruhlari va asosiy funksiyalarini o‘z ichiga oladi;

oliy ta’limni xalqarolashtirish sharoitida talaba-yoshlarning intellektual harakatchanligining dolzarb tuzilmasi batafsil bayon etildi, u to‘rtta komponentni

(ehtiyaj-motivatsion, intellektual-ijodiy, ijtimoiy va shaxsiy) o'z ichiga oladi, ular ko'rib chiqilayotgan hodisani yanada samarali rivojlantirish uchun optimal yo'llar va pedagogik sharoitlarni ochib beradi;

talaba-yoshlarning intellektual harakatchanligini baholash uchun asoslangan metodikalar kompleksi tanlab olindi, u ehtiyaj-motivatsion, intellektual-ijodiy, ijtimoiy va shaxsiy tarkibiy qismlarni qamrab oladi, ta'lim amaliyotida pedagogik diagnostikaning ishonchligi va validligini ta'minlaydi;

talaba-yoshlarning ehtiyaj-motivatsion sohasini intellektual harakatchanlikni rivojlantirish asosi sifatida mustahkamlashga qaratilgan pedagogik trening dasturi ishlab chiqildi va sinovdan o'tkazildi, u mini-ma'ruzalar, interaktiv mashqlar, refleksiv metodikalar va talabalarning muvaffaqiyatga motivatsiyasini, mustaqilligini, kognitiv va professional faolligini, shuningdek, ularning axborot faolligini, o'z-o'zini takomillashtirishga intilishini statistik jihatdan sezilarli darajada oshirishga yordam beradigan amaliy topshiriqlardan kompleks foydalanishni nazarda tutadi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi** dissertatsiya tadqiqotining tegishli metodologik bazasi, intellektual mobillikni o'rganish, sinovdan o'tkazilgan vositalar yordamida menejment mexanizmlari, olingan ma'lumotlarni standartlashtirilgan umumlashtirish mexanizmi yordamida talqin qilish, tadqiqot tanlamalarini, taqqoslash guruhlarini shakllantirish, olingan empirik natijalarni pedagogika fanida qabul qilingan mezonlar yordamida (birlamchi tavsifiy statistika – o'rtacha (M), moda (Mo), mediana (Md), chastotali tahlil, bog'liq tanlamalar uchun Wilkoxonning noparametrik T-mezeni bo'yicha qiyosiy tahlil), Excel, SPSS dasturiy vositalardan foydalangan holda tahlil qilish va tadqiqot natijalarini tegishli talqini bilan asoslangan.

#### **Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati oliy ta'limni xalqarolashtirish sharoitida, xalqaro QAA (Quality Assurance Agency for Higher Education) sifatni baholash standarti hisobga olingan holda, talabalar intellektual mobilligini boshqaruv ta'siri obyekt sifatida tizimli anglash orqali ta'lim menejmenti nazariyasini rivojlantirish bilan belgilanadi. Ishda intellektual mobillikning mohiyatli tavsiflari aniqlashtirilgan, uning tarkibiy komponentlari, pedagogik shart-sharoitlari va rivojlantirishning boshqaruv mexanizmlari belgilangan. Tashkiliy-boshqaruv, mazmuniy-protsessual va nazorat-diagnostika quyi tizimlarini integratsiyalovchi intellektual mobillik menejmentining konseptual asoslari ishlab chiqilgan va ko'p darajali modeli takomillashtirilgan. Model samaradorligini baholashning mezon va ko'rsatkichlar tizimi asoslangan, shuningdek, xalqarolashgan ta'lim muhitini boshqarishda sinergetik yondashuvni qo'llash imkoniyatlari haqidagi ilmiy tasavvurlar kengaytirilgan. Olingan natijalar ta'lim menejmenti nazariyasini boyitadi va xalqarolashtirish hamda talabalarning transmilliy kompetensiyalarini rivojlantirish sohasidagi kelgusi tadqiqotlar uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

**Tadqiqotning amaliy ahamiyati** ishlab chiqilgan pedagogik shartlar, takomillashtirilgan menejment modeli, mezonlar va ko'rsatkichlar tizimi, diagnostika vositalari hamda uslubiy ta'minotdan oliy ta'lim muassasalari faoliyatida bevosita foydalanish imkoniyati bilan belgilanadi. Tadqiqot natijalari

oliy ta'lim muassasalarining boshqaruv amaliyotida - xalqarolashtirish mexanizmlarini loyihalash va amalga oshirishda, talabalarning intellektual mobilligini monitoring qilishni tashkil etishda, ta'lim dasturlarining samaradorligini baholashda va boshqaruv qarorlarini qabul qilishda, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarida "Registrator ofisi" faoliyatini tashkil etishda qo'llanilishi mumkin. Ishlab chiqilgan materiallar ta'lim dasturlarini modernizatsiya qilishda, o'quv-uslubiy majmualarni ishlab chiqishda, o'qituvchilar va ma'muriy-boshqaruv xodimlari uchun uslubiy tavsiyalar tayyorlashda, shuningdek oliy ta'lim xodimlarining malakasini oshirish tizimida foydalanilishi mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** O'tkazilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida olingan ilmiy natijalar va ishlab chiqilgan takliflar asosida:

oliy ta'limni xalqarolashtirish sharoitida intellektual harakatchanlikni rivojlantirish menejmenti mexanizmlarini talabalarning akademik mobilligi, transmilliy ta'lim hamkorligi va raqamli ta'lim ekotizimiga integratsiyasini kuchaytirishga qaratilgan strategik boshqaruv va akademik hamkorlik modellarini joriy etish orqali aniqlashtirish bo'yicha takliflar "Eksperimental psixologiya" nomli darslik mazmuniga singdirilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 29 sentabrdagi 438-sonli buyrug'i, 438398-sonli nashrga ruxsat). Natijada talabalarning oliy ta'limni xalqarolashtirish sharoitida intellektual harakatchanlik bo'yicha bilim va ko'nikmalari rivojlantirilgan;

intellektual harakatchanlikni rivojlantirish menejmentining ko'p darajali modelini kredit-modul tizimida o'quv faoliyati ko'rsatkichlarini muvofiqlashtirishga asoslangan tayanch metodologik, mazmuniy-protsessual va nazorat-dagnostika komponentlari tarkibiga kompetensiyaviy indikatorlar, raqamli monitoring va ta'lim analitikasi mexanizmlarini yakuniy baholash vositalari sifatida kiritish asosida takomillashtirish bo'yicha tavsiyalardan Oliy ta'lim, fan va innovatsiya vazirligi huzuridagi Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutida bajarilgan IL-4821091576 "Masofaviy texnologiyalardan foydalangan holda oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimlarida o'quv faoliyatini tashkil etish" mavzusidagi loyihani amalga oshirishda foydalanilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiya vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazining 2025-yil 12-avgustdagi № 02/01-01-319 sonli ma'lumotnomasi). Natijada loyiha doirasida oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslari ta'lim dasturlari takomillashtirilgan;

intellektual harakatchanlikni rivojlantirish menejmenti jarayonini "Registrator ofisi"ning tashkiliy-boshqaruv mexanizmlari va tarkibiy tuzilma vazifalarini aniqlash orqali akademik mobillikni boshqarish, kompetensiyaviy diagnostik indikatorlardan foydalanish hamda ta'limiy analitikasi va adaptiv boshqaruv texnologiyalarini joriy etish asosida takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar "Oliy ta'lim tashkilotlarida Registrator ofisi faoliyatini tashkil etish" mavzusidagi malaka oshirish ta'lim dasturi mazmuniga singdirilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 27-avgustdagi 329-sonli buyrug'i).

Natijada, intellektual harakatchanlikni rivojlantirish menejmenti jarayoni takomillashtirilgan;

oliy ta'limda intellektual harakatchanlikni rivojlantirish menejmentining diagnostik vositalarini xalqaro akkreditatsiya talablariga uyg'un shakllantirilgan transmilliy kompetensiyalar, kognitiv moslashuvchanlik va madaniyatlararo muloqot qobiliyatlarini rivojlanganlik darajasini ta'lim natijalarini baholashning integrativ mezonlari orqali aniqlashtirishga asoslangan platforma sifatida ishlab chiqish bo'yicha takliflar Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutida bajarilgan IL-4821091576 "Masofaviy texnologiyalardan foydalangan holda oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimlarida o'quv faoliyatini tashkil etish" mavzusidagi loyihani amalga oshirishda foydalanilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazining 2025-yil 12-avgustdagi № 02/01-01-319 sonli ma'lumotnomasi). Natijada, oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimlarida o'quv faoliyatni diagnostika metodlari takomillashtirilgan;

talabalarning intellektual harakatchanligini rivojlantirish menejmentini takomillashtirish bo'yicha metodik ta'minotini adaptiv boshqaruv, global fikrlash, xalqaro kommunikatsiya kompetensiyalarini shakllantirishni qo'llab-quvvatlovchi ta'lim resurslarini yaratishga sinergetik yondashuvni amalga oshirish asosida ishlab chiqish bo'yicha takliflar "Eksperimental psixologiya" darsligi mazmuniga singdirilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 29-sentabrdagi 438-sonli buyrug'i, 438398-sonli nashrga ruxsat). Natijada oliy ta'limda talabalarning intellektual harakatchanligini rivojlantirish va boshqarish bo'yicha metodik ta'minot kengaytirilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 7 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan. Dissertatsiya ishi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutida o'tkazilgan kengaytirilgan seminarda muhokamadan o'tgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 20 ta ilmiy ish nashr etildi, jumladan, 2 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan dissertatsiyaning asosiy ilmiy natijalarini nashr etish uchun tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 18 ta ilmiy maqola chop etildi, shulardan 14 tasi respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 236 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Tadqiqotning **kirish qismida** disertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o'rganilgan darajasi yoritilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti aniqlangan, tadqiqotning ilmiy yangilik bayon etilgan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, ularning nazariy va amaliy

ahamiyati ochib berilgan, natijalarni amaliyotga joriy qilinishi yoritilgan, nashr etilgan ishlar, ularning aprobasiyasi hamda dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Pedagogika fanida oliy ta’limni xalqarolashtirish sharoitlarida intellektual mobillikni rivojlanishni tadqiq qilishning nazariy va metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida intellektual mobillik tushunchasi va uning mohiyati, oliy ta’limni xalqarolashtirishning nazariy asoslari, shuningdek, intellektual mobillikni rivojlanish jarayoni pedagogik muammo sifatida tadqiq qilingan.

O’rganilayotgan muammo bo’yicha ilmiy adabiyotlarning tahlili shuni ko’rsatadiki, “intellektual mobillik” tushunchasini intellekt va mobillik kabi ikki komponent orqali ko’rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Intellekt talabalarining unumli ta’lim olish qobiliyatini ta’minlab beradigan fikrlash operatsiyalari, kognitiv qobiliyatlar va ijodiy salohiyatni o’z ichiga olgan tizim sifatida ta’riflanadi. O’z navbatida, mobillik fikrlashning egiluvchanligini, tez o’rganish, faoliyat yo’nalishlarini o’zgartirish va turli ta’limiy va kasbiy tizimlarga integratsiyalashuv qobiliyatini qamrab oladi. Bundan tashqari, bugungi kunda axborotga doir, ta’limiy, kasbiy, ijtimoiy kabi turli xil mobillik turlari mavjud bo’lib, ular shaxsning faol bilish, yangi ma’lumotlarni tahlil qilish va innovatsion fikrlashga tayyorligini shakllantiradi. Shu bilan birga, aksariyat zamonaviy olimlarning fikriga ko’ra, intellektual mobillik murakkab ta’lim dasturlarini muvaffaqiyatli o’zlashtirish va kasbiy rivojlanishni ta’minlab beradigan talabalarni tayyorlashning hal qiluvchi komponentini ifodalaydi.

Zamonaviy pedagogik amaliyot shuni ko’rsatadiki, oliy ta’limning xalqarolashtirishuvini oliy ta’lim tarkibiga xalqaro ta’lim standartlari, akademik mobillik va transmilliy hamkorlikni kiritish jarayoni sifatida aniqlash maqsadga muvofiqdir. Bunda ta’limning globallashuvi o’qitish va ta’lim jarayonini tashkil etishda yangi (yangilangan) yondashuvlarni, jumladan, ilmiy tadqiqotlar va ta’lim kurslarini modernizatsiya qilishni talab qiladi. Bugungi kunda, jahon ta’lim makonida universitetlar o’rtasidagi hamkorlikni kengaytirish, bilimlarni baholash uchun yagona standartlarni joriy etish hamda fanlararo va madaniyatlararo kompetentsiyalarga yo’naltirilgan ta’lim dasturlarini rivojlantirish kabi turli xil xalqarolashtirish strategiyalari mavjud.

Ushbu jarayonda intellektual mobillikning roli global iqtisodiyot va ilm-fandagi o’zgarishlarga moslashish qobiliyatiga ega raqobatbardosh mutaxassislarni shakllantirish va rivojlantirish jihatdan oshmoqda. Ushbu kontekstda xalqarolashtirish nafaqat ta’lim sifatini oshirish vositasi sifatida, balki talabalarning global ta’lim makoniga ijtimoiy moslashish omili sifatida ko’riladi.

Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, intellektual mobillikni rivojlanish jarayonining natijadorligi zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan, jumladan, raqamli platformalar, interfaol ta’lim metodikalar, loyihaviy va tadqiqot faoliyatidan faol foydalanishga bog’liq. Bundan tashqari, intellektual mobillikni rivojlanishga ko’maklashuvchi shart-sharoitlar mavjud bo’lib, ularning ichida fanlararo yondashuv, ta’lim dasturlarining variativligi, shuningdek, talabalar tadqiqotchilik

faoliyatining o'quv jarayoniga integratsiyalashuvini ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga intellektual mobillikni shakllantirishga to'sqinlik qiluvchi talabalar motivatsiyalarining pastligi, o'qitishning konservativ usullari va ta'limiy tashabbuslarning yetarli darajada moliyalashtirilmasligi kabi to'siqlar mavjud. Umuman olganda, xalqaro makonda o'tkazilgan tadqiqotlar intellektual mobillikning zamonaviy mehnat bozorining jadal o'zgarib boradigan shart-sharoitlariga bitiruvchilarning kasbiy jihatdan tayyorligi mezoni sifatidagi ahamiyatini, shuningdek uning tanqidiy fikrlashning barqaror ko'nikmalarini shakllantirish, moslashish va o'z-o'zini rivojlantirish uchun muhimligini ko'rsatayapti.

Dissertatsiyaning **“Oliy ta'limni xalqarolashtirish sharoitlarida intellektual mobillikni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida intellektual rivojlanishning oliy ta'limni xalqarolashtirish sharoitlarida uning konseptual asoslari, komponentli tuzilish va modeli ochib berilgan. Konseptual asoslash doirasida unga nisbatan tizimli, sinergetik va sub'ektli-faoliyatli kabi asosiy metodologik yondashuvlarni ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiqdir. Tizimli yondashuv intellektual mobillikning tuzilishi va o'zaro bog'liq elementlariga e'tibor qaratadi. Sinergetik yondashuv ta'lim muhitida dinamik o'zaro ta'sir, talabalarning o'z-o'zini rivojlantirishi va yangi bilimlarning integratsiyalashuvini ta'kidlaydi. Sub'ektli-faoliyatli yondashuv talabalarning ta'lim jarayoni sub'ektlari sifatidagi faolligiga urg'u beradi, ularda o'z kasbiy tayyorlanishiga mustaqil va ongli munosabatni shakllantirishni nazarda tutadi.

Olingan tadqiqot natijalari oliy ta'limni xalqarolashtirish sharoitlarida zamonaviy talaba-yoshlar intellektual mobilligini rivojlantirishning konseptual asoslarini tayyorlash imkonini berdi. Ushbu, deyarli murakkab jarayon metodologik, mazmunli-jarayonli va nazorat-diagnostika jihatlarni o'z ichiga olgan kompleks yondashuvni talab qiladi. Metodologik quyi tizim intellektual mobillikni tizimli pedagogik jarayon sifatida rivojlanishini belgilab beradigan nazariy asoslar, tamoyillar va qonuniyatlarning integratsiyalashuviga asoslangan. Mazmunli-jarayonli quyi tizim bilimlar, ko'nikmalar va kompetensiyalarni intellektual mobillikka transformatsiya qilishni ta'minlaydi, bu fanlararo integratsiyani, zamonaviy ta'lim texnologiyalarini qo'llashni va mehnat bozorining talablariga moslashishni o'z ichiga oladi. Nazorat qilish-diagnostika quyi tizimi intellektual mobillikning rivojlanish darajalarini aniqlaydi va ta'lim strategiyalarining samaradorligini baholaydi. Bunda intellektual mobillikni ta'limiy, kasbiy va ijtimoiy integratsiyalashuvi prizmasi orqali kompleks ko'rib chiqishni hisobga olgan holda tizimli, sinergetik va sub'ektli-faoliyatli yondashuvlar kabi konseptual yondashuvlarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Bo'lajak mutaxassislarini tayyorlash jarayonida sub'ektiv va predmetli, nazariy va amaliy, o'quv va o'quv-kasbiy, shuningdek, boshqaruv, loyihalash, ishlab chiqarish, ilmiy tadqiqotlar va refleksiya sohalardagi ular faoliyatining turli darajalarini ajratish maqsadga muvofiqdir. Fundamental tamoyillar, shaxsiy-kasbiy yo'nalish olish va kasbiy tayyorgarlik tamoyillari

intellektual mobillikning samarali rivojlanishi uchun asosni shakllantiradi, bitiruvchilarning dinamikligi, moslashuvchanligi va kasbiy jihatdan tayyorligini ta'minlaydi. Intellektual mobillikni rivojlantirishning tashkiliy-jarayonli, ijtimoiy-rivojlantiruvchi, kognitiv-moslashtirish, faoliyatli-texnologik va kreativ-tartibga soluvchi kabi asosiy funksiyalari talabalarning shaxsiy va kasbiy o'z-o'zini rivojlantirishga qaratilgan yaxlit ta'lim muhitining shakllanishiga yordam beradi.

Oliy ta'limni xalqarolashtirish sharoitlarida talaba-yoshlarining intellektual mobilligi yuzasidan o'tkazilgan tadqiqot asosida uning komponentli tuzilishini yanada batafsil tahlil qilish zarurati aniqlangan, chunki ushbu hodisa bo'lajak mutaxassis shaxsining yangitdan murakkab, tizimli-integrativ shakllanishini ifodalaydi, bu esa unga o'zgarishlarga samarali moslashish, kasbiy vazifalarni hal qilish va kompetensiyalarni rivojlantirish imkonini beradi. Tadqiqot doirasida, nazariy tahlil natijasida aniqlangan intellektual mobillikning 34 ta umumlashtirilgan tarkibiy qismlarini o'z ichiga olgan maxsus ishlab chiqilgan so'rovnomaga asoslangan ekspert baholash o'tkazildi.

Baholash 172 nafar professor-o'qituvchilar va oliy ta'lim muassasalarining ma'muriy xodimlaridan iborat ekspert o'rtasida amalga oshirildi (1-jadval).

### 1-jadval

#### Zamonaviy talaba-yoshlar intellektual mobilligining tarkibiy qismlarini baholashda ishtirok etgan ekspertlarning miqdoriy tavsifi (n=172)


Mutaxassislar toifalari	Kasbiy faoliyat staji bo'yicha							
	10 yildan 15 yilgacha		16 yildan 20 yilgacha		21 yildan va yuqori		Jami	
	miqdori	% da	miqdori	% da	miqdori	% da	miqdori	% da
professor-o'qituvchi tarkibidan ekspertlar	34	64,2	49	73,1	34	65,4	117	68,0
ma'muriyat tarkibidan ekspertlar	19	35,8	18	26,9	18	34,6	55	32,0
<b>Jami</b>	<b>53</b>	<b>30,8</b>	<b>67</b>	<b>39,0</b>	<b>52</b>	<b>30,2</b>	<b>172</b>	<b>100,0</b>

Ekspert baholash intellektual mobillikning umumlashtirilgan tarkibiy qismlarining umumiy miqdoridan atigi 23 tasi yuqori darajadagi moslik darajasida baholanganini aniqlashga imkon berdi. Bunga 13 dan 15 ekspert balligacha bo'lgan diapazonda joylashgan o'rtacha (M), moda (Mo) va mediana (Md) qiymatlari guvohlik beradi. Shunday qilib, ushbu tarkibiy qismlar ro'yxatini dolzarb, ya'ni zamonaviy talaba-yoshlarining intellektual mobilligining ichki tabiatini ochib berish uchun maqbul deb talqin qilish maqsadga muvofiqdir.

Bundan tashqari, dastlabki statistik ko'rsatkichlar bo'yicha ekspert baholarning butun diapazoni 6,6 dan 15 ekspert balligacha bo'lgan chegarada taqsimlanganini ko'rishimiz mumkin, ya'ni bu yaxlitlangan holda o'rtacha moslik darajasi, o'rtadan yuqori moslik darajasi va yuqori moslik darajasi sifatida talqin qilinadi. Bunda past moslik darajasi va o'rtadan past moslik darajasi kabi ekspert baholar amalda kuzatilmagan. Ushbu fakt, bir tomondan, intellektual mobillikning ajratib ko'rsatilgan va umumlashtirilgan tarkibiy qismlari nazariy tahlilidan

olingan xulosalarning optimal ekanligini, ikkinchi tomondan esa, tadqiqot tanlamasi bo'yicha nazariy xulosalarning empirik jihatdan aniqliklashtirishning (tasdiqlashning) dolzarbligini tasdiqlaydi.

Zamonaviy talaba-yoshlarining intellektual mobilligining ajratilgan dolzarb tarkibiy qismlarini talqin qilishda qulaylik yaratish maqsadida ularning tasnifi amalga oshirildi, ya'ni tegishli guruhlariga birlashtiruvchi belgilar yoki ehtiyojli-motivatsion, intellektual-ijodiy, ijtimoiy va shaxsiy kabi tuzilish komponentlari bo'yicha taqsimlandi (1-rasm).



**1-rasm. Oliy ta'limni xalqarolashtirish sharoitlarida intellektual mobillikning komponentli tuzilishi**

Ehtiyoj-motivatsion komponent muvaffaqiyatga motivatsiya, axborot faoliyatiga motivatsiya, kasbiy o'z-o'zini rivojlantirish va o'z-o'zini


takomillashtirish ehtiyoji, mustaqil bo'lishga ehtiyoj, kasbiy qiziqishlar kabi xususiyatlarni o'z ichiga oladi, bu intellektual faollikka barqaror ichki rag'batlantiruvchi omillar, stimullarni shakllantirishning muhimligini ko'rsatadi. Intellektual-ijodiy komponent esa ijodiy salohiyat, bashorat qilish qobiliyati, intellektual va kasbiy rivojlanishning yuqori darajasi kabi xususiyatlarni birlashtiradi, bu mobillik kontekstida intellektual qobiliyatlarning ahamiyatini tasdiqlaydi. Ijtimoiy komponent muloqot qilish qobiliyati, kommunikativ jihatdan tolerantlik, ijtimoiy yetuklik, mas'uliyat va kasbiy jihatdan o'z-o'zini ro'yobga chiqarishni o'z ichiga oladi, bu talabaning atrof-muhit bilan samarali o'zaro ta'sirda bo'lish va ijtimoiy o'zgarishlarga moslashish qobiliyatini aks ettiradi. Shaxsiy komponent, o'z navbatida, refleksivlik, o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyati, iroda bilan o'z-o'zini tartibga solish, o'z-o'zining samaradorligi va o'z-o'zini tashkil qila olish kabi xususiyatlar bilan ifodalanadi, bu esa intellektual mobillikni shakllantirish uchun ichki intizom va o'z-o'zini tahlil qilish zarurligini ta'kidlaydi.

Umuman olganda, olingan natijalar talabalarning ta'lim jarayonida har tomonlama rivojlanishining ahamiyatini tasdiqlaydi, bu ularni mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lishlariga va kasbiy faoliyatning o'zgaruvchan sharoitlariga muvaffaqiyatli moslashishlariga imkon beradi.

Pedagogik yondashuvlarning asosiy konseptlarini hisobga olgan holda va modellashni pedagogik loyihalashning salmoqli jarayonlaridan biri sifatida ko'rib, oliy ta'limni xalqarolashtirish sharoitlarida intellektual mobillikni rivojlantirish jarayonining modeli ishlab chiqildi (2-rasm).

Ishlab chiqilgan model uchta asosiy metodologik yondashuv, ya'ni tizimli, sinergetik va subyektli-faoliyatli yondashuvlarga asoslangan kompleks tizimni ifodalaydi. U talabalar intellektual mobilligini shakllantirish uchun barqaror asosni ta'minlaydigan yaxlitlik, pedagogik sinergiya, dinamiklik va ochiqlik kabi fundamental tamoyillarni o'z ichiga oladi.

Ushbu model doirasida shaxsiy-kasbiy rivojlanish (psixologik qulaylik, ong va faollik, shaxsning butunligi, determinizm) va kasbiy tayyorgarlik (insonparvarlashtirish, ijodiy tashabbusga yo'naltirish, ta'limni individual loyihalash, bashorat qila olish) tamoyillariga alohida e'tibor qaratilgan. Ta'lim muhitini takomillashtirish, talabalarni intellektual faoliyatga motivatsiyalash, umumiy kasbiy va chet tillar bo'yicha tayyorlashni integratsiyalash, interfaol metodlarni (tadbirkorlik o'yinlari, keys-metodi, munozaralar, loyiha metodlari) faol qo'llash, shuningdek zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish eng muhim pedagogik shart-sharoitlar hisoblanadi. Nazorat va baholash intellektual mobillikni passiv-situativ, adaptiv-faoliyatli va kreativ-tizimli kabi turli darajalarda diagnostika qilishni o'z ichiga oladi, bu talabalarning individual ta'lim traektoriyalarini shakllantirish imkonini beradi. Fikr yuritishning egiluvchanligi, qaror qabul qilish tezligi, refleksiya qilish qobiliyatini shakllantirish va intellektual o'sishga alohida e'tibor qaratilgan. Shunday qilib, model global ta'lim makonining zamonaviy talablariga moslashishga yordam beruvchi intellektual mobillikni talaba-yoshlarining eng muhim sifatlaridan biri sifatida rivojlantirishini ta'minlaydi.




**2-rasm. Oliy ta'limni xalqarolashtirish sharoitlarida talaba-yoshlar intellektual mobilligini rivojlantirish modeli**

Dissertatsiyaning **“Oliy ta’limni xalqarolashtirish sharoitlarida intellektual mobillikni rivojlantirish menejmentining modeli”** deb nomlangan uchinchi bobida oliy ta’limni xalqarolashtirish sharoitlarida intellektual mobillikni rivojlantirish menejmentining modelini ishlab chiqishga oid tadqiqot jarayoni ko’rib chiqilgan, mazkur modelning amalga oshirishning o’ziga xos xususiyatlari ajratib ko’rsatilgan, shuningdek uning amaliy samaradorligi o’rganilgan.

Mazkur dissertasion tadqiqotda olingan natijalarga asoslanib, Oliy ta’limni xalqarolashtirish sharoitlarida intellektual mobillikni rivojlantirish menejmentining modeli tayyorlangan, u talabalar intellektual mobilligining rivojlanishiga yordam beradigan boshqariladigan muhitni shakllantirishga qaratilgan strukturalashgan tizimni ifodalaydi (3-rasm). Modelning asosini pedagogik, psixologik va sotsiologik yondashuvlar tahlili natijalari, shuningdek, tizimli, sinergetik va subyektli-faoliyatli yondashuvlarni o’z ichiga olgan zamonaviy nazariy konsepsiyalar tashkil etadi.


Model intellektual mobillikni tadqiq etishning muammoliligini, uning kasbiy raqobatbardoshlik va ko’p madaniyatlilik sohasida kompetentlik bilan o’zaro bog’liqligini, shuningdek, oliy ta’limni xalqarolashtirish talablarini hisobga oladi. Modelning asosiy komponentlari olti o’zaro bog’langan blokni o’z ichiga oladi. Maqsadli blok modelning strategik yo’nalishini belgilaydi, ta’lim dasturlarini ishlab chiqish, talabalarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishi uchun sharoitlar yaratish, xalqaro dasturlarda ishtirok etishga motivatsiyalash va chet ellik hamkorlar bilan o’zaro ta’sir, munosabatlarni mustahkamlash bilan bog’liq vazifalarni shakllantiradi.

Tashkiliy-tarkibiy blok boshqaruvning quyidagi uchta darajasini o’z ichiga oladi, bular: institutsional (dasturlar, infratuzilma, xalqaro hamkorlik), talabalarga doir (tashabbuskor guruhlar, mentorlik jamoalari) va xalqaro (ijtimoiy tarmoqlar loyihalarida ishtirok etish). Resurslar bloki kadrlar zaxirasini (o’qituvchilarni tayyorlash), texnologik (raqamli platformalar) va moliyaviy (grantlar, stipendiyalar) resurslarni ta’minlab beradi. Ta’lim bloki xalqaro dasturlarni joriy etish, loyihaviy ta’limni integratsiyalashga, madaniy va til bo’yicha tayyorlashni rivojlantirishga, shuningdek, ilmiy-tadqiqot faoliyatini kuchaytirishga qaratilgan. Motivatsion-xulq-atvorga oid blok talabalarda intellektual mobillikka intilishini shakllantiradi, yangi sharoitlarga moslashishga psixologik jihatdan tayyorligini va motivatsion rag’batlar tizimini (rag’batlantirish, tanlovlar, kar’era traektoriyalari) qo’llab-quvvatlaydi. Nazorat-baholash bloki testlar, yutuqlar portfoliosi, kompetensiyalarni mustaqil xalqaro darajada baholash va qayta aloqa asosida ta’lim dasturlarini doimiy ravishda takomillashtirish orqali intellektual mobillik darajasini monitoring qilishni nazarda tutadi. Umuman olganda, ishlab chiqilgan model intellektual mobillik menejmentining barcha asosiy jihatlarini qamrab olgan, ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilari o’rtasida samarali o’zaro ta’sirni hamda talabalarning jahon ta’lim makoniga integratsiyalashuvini ta’minlaydigan kompleks tizimni ifodalaydi.



**3-rasm. Oliy ta'limni xalqarolashtirish sharoitlarida talaba-yoshlar intellektual harakatchanligini rivojlantirish ko'p darajali modeli**

Oliy ta'limni xalqarolashtirish sharoitlarida intellektual mobillikni rivojlantirish menejmentining modelini amaliyotda amalga oshirilishi murakkab, lekin juda muhim jarayon bo'lib, tizimli yondashuv va batafsil rejalashtirishni talab qiladi. Ushbu modelni muvaffaqiyatli joriy etish uchun bosqichma-bosqich algoritmi ishlab chiqilgan bo'lib, u taxliliv, loyihaviv, tashkilotchilik, amaliy va nazorat-baholash bosqichlarini o'z ichiga oladi (4-rasm).




**4-rasm. Oliy ta'limni xalqarolashtirish sharoitlarida intellektual mobillikni rivojlantirish menejmenti modelini amaliy amalga oshirishning asosiy bosqichlari**

Modelni amalga oshirishga tayyorlashda tahliliv bosqich hal qiluvchi rol o'ynaydi, u talabalarning intellektual mobilligi darajasini baholash, mavjud ta'lim dasturlari va infratuzilmasini tahlil qilish, shuningdek, OTMning ehtiyojlari va imkoniyatlarini aniqlashni o'z ichiga oladi. Ushbu bosqich doirasida intellektual

mobillikning intellektual-ijodiy, shaxsiy, ijtimoiy va ehtiyojli-motivatsion komponentlarni diagnostika qilish uchun turli psixometrik metodikalar qo‘llaniladi. Loyihaviy bosqich strategiyalar va dasturlarni ishlab chiqishga, asosiy samaradorlik ko‘rsatkichlarini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, bu modelni joriy etish jarayonini strukturalash imkonini beradi. Tashkilotchilik bosqichi kadrlar va resurslarga tegishli shart-sharoitlarni, jumladan, OTMlar va tashkilotlar bilan xalqaro hamkorlikni o‘rnatishni ta‘minlaydi, bu esa talabalar intellektual mobilligi imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi. Amaliy bosqichda ta‘lim oluvchilar intellektual mobilligini oshirishga qaratilgan ta‘lim dasturlari, kurslar, tadbirlar, tashabbuslar hamda xalqaro standartlarni ta‘lim jarayoniga integratsiyalash amalga oshiriladi. Yakuniy nazorat-baholash bosqichi modelning amalga oshirilish samaradorligini monitoring qilish, olingan natijalarni tahlil qilish, tuzatishlar kiritish va modelning barqaror resurs ta‘minotini ta‘minlashni o‘z ichiga oladi, bu esa uni o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashtirish va samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Mazkur modelning joriy qilinishi kompleks yondashuvni hamda talabalar, o‘qituvchilar, OTM ma‘muriyati va xalqaro sheriklar kabi turli manfaatdor tomonlarning o‘zaro ta‘sirini talab qiladi, bu uning ta‘lim jarayoniga muvaffaqiyatli integratsiyasini va oliy ta‘limning globallashtirish sharoitlarida uzoq muddatli rivojlanishini ta‘minlaydi.

Oliy ta‘limni xalqarolashtirish sharoitlarida intellektual mobillikni rivojlantirish menejmenti modelining samaradorligi ta‘limiy menejmentni tashkil qilishda qatnashgan professor-o‘qituvchilar va OTM ma‘muriyati vakillaridan iborat 187 nafar mutaxassislar ekspert bahosi qo‘llash yordamida tadqiq qilindi (5-rasm).



**5-rasm. Oliy ta‘limni xalqarolashtirish sharoitlarida intellektual mobillikni rivojlantirish menejmenti modelining samaradorligini baholashda ishtirok etgan mutaxassislarning toifalar bo‘yicha miqdoriy tavsifi (n=187)**

Baholash maxsus ishlab chiqilgan, shaxsiy rivojlanishga yo‘naltirilganlik, amalda qo‘llanilishi mumkinligi, ilmiy asoslanganligi, motivatsion ta‘sir, ta‘lim

maqsadlariga mosligi, tizimlilik, innovatsionlik va boshqa muhim jihatlar kabi 16 ta asosiy samaradorlik mezonlarini o'z ichiga olgan ekspert so'rovnoma asosida o'tkazilgan. Olingan natijalar modelning samaradorlik darajasi, ayniqsa talabalar shaxsiy rivojlanishiga yo'naltirilganlik jihatidan ( $M=14,89$ ;  $Mo=15$ ;  $Md=15$ ) yuqori ekanligini ko'rsatmoqda, bu uning talabalar individual o'sishi hamda global ta'lim va kasbiy makonga integratsiyalashuviga yordam berish qobiliyatidan dalolat beradi.

Modelning amaliy qo'llanilishi ( $M=14.57$ ;  $Mo=15$ ;  $Md=15$ ) uning real voqelikka mos kelishini va uni ta'lim jarayoniga joriy etish mumkinligini tasdiqlaydi, uning yuqori darajada ilmiy asoslanganligi ( $M=14.42$ ;  $Mo=14$ ;  $Md=14$ ) esa modelning zamonaviy ilmiy va metodologik talablarga muvofiqligidan dalolat beradi. Ahamiyatli motivatsion ta'siri ( $M=14.33$ ;  $Mo=14$ ;  $Md=14$ ) modelning talabalar o'qishga va rivojlanishga qiziqishini rag'batlantirishini, bu, o'z navbatida, ularning ta'lim jarayoniga jalb qilinganligini oshiradi. Ta'lim maqsadlariga muvofiqlik mezon ( $M=14.24$ ;  $Mo=14$ ;  $Md=14$ ) modelning milliy va xalqaro ta'lim standartlari va talablariga javob berishini isbotlaydi, qayta aloqaning yuqori darajada ekanligi ( $M=14.22$ ;  $Mo=14$ ;  $Md=14$ ) modelda ta'lim jarayoni ishtirokchilarining talablari va umidlariga tezkor javob berish mexanizmlari ko'zda tutilganligini ko'rsatadi.

Natijadorlikning ijobiy baholanishi ( $M=14.11$ ;  $Mo=14$ ;  $Md=14$ ) modelning belgilangan maqsadlarga erishish va ta'limning o'lchab bo'ladigan natijalarini namoyish qilish imkoniyatiga egaligini tasdiqlaydi. Bundan tashqari, ma'lumotlar tahlili natijalarni baholash va monitoring qilish ( $M=13.78$ ;  $Mo=14$ ;  $Md=14$ ), tizimlilik ( $M=13.68$ ;  $Mo=14$ ;  $Md=14$ ) va innovatsionlik ( $M=13.20$ ;  $Mo=14$ ;  $Md=14$ ) kabi mezonlar bo'yicha yuqori baholarni ko'rsatgan bo'lib, bu modelning bir butunligi, strukturalashganligi va taraqqiy etish xususiyatiga ega ekanligi, ya'ni ilg'orligidan dalolat beradi. Biroq, inklyuzivlik ( $M=12.66$ ;  $Mo=13$ ;  $Md=13$ ) va tejamkorlik ( $M=11.19$ ;  $Mo=11$ ;  $Md=11$ ) mezonlari biroz past baholangan, bu esa modeldan kengroq foydalanishni va resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlash uchun ushbu jihatlarni yanada chuqurroq ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi. Umuman olganda, ekspert tahlilining natijalari taklif etilgan modelning samarali ekanligini, zamonaviy ta'lim chaqiriqlariga moslashuvchan, talaba-yoshlarining intellektual mobilligini rivojlantirishga yordam berishini va xalqarolashtirish sharoitlarida oliy ta'lim amaliyotiga muvaffaqiyatli joriy etilishi mumkinligi hamda yuqori ta'limiy va kasbiy natijalarni ta'minlashini tasdiqladi.

Dissertatsiya ishining **“Oliy ta'limni xalqarolashtirish sharoitlarida talabalar intellektual mobilligini rivojlantirish menejmenti modelining amaliyotda amalga oshirilishi”** deb nomlangan to'rtinchi, yakuniy bobida oliy ta'limni xalqarolashtirish sharoitlarida talabalar intellektual mobilligini rivojlantirish menejmentida ehtiyojli-motivatsion sohaning roli va ahamiyati tadqiq qilingan, talaba-yoshlar ehtiyojli-motivatsion sohasini optimallashtirishning eng maqbul yo'llari, shuningdek, oliy ta'limni xalqarolashtirish sharoitlarida intellektual mobillikni rivojlantirish bo'yicha pedagogik trening dasturi ochib berilgan.

Pedagogik amaliyot oliy ta'limni xalqarolashtirish sharoitlarida talabalar

intellektual mobilligini rivojlantirish menejmentida ehtiyojli-motivatsion soha hal qiluvchi rol o'ynashini ko'rsatadi, chunki aynan u ularning faolligi, o'zgarishlarga chidamliligi va o'z-o'zini rivojlantirish samaradorligini belgilab beradi. O'z-o'zini ro'yobga chiqarishga, bilim olish va kasbiy jihatdan o'sishga intilish kabi oliy ehtiyojlar talabalarning yangi bilimlarni o'zlashtirish, tanqidiy fikrlash va madaniyatlararo o'zaro ta'sirga rag'batlantiradi.


Intellektual mobillikni muvaffaqiyatli rivojlantirishning muhim omili ichki va tashqi motivatsiyaning uyg'un bo'lishi namoyon bo'ladi: ichki motivatsiya qiziqish va o'z-o'zini rivojlantirishga intilishga asoslangan bo'lib, bilish faolligini barqarorligini ta'minlaydi, tashqi motivatsiya (ijtimoiy tan olinish, martaba, kar'era istiqbollari) esa qo'shimcha, lekin barqarorligi kamroq rag'bat bo'lishi mumkin. Ehtiyojli-motivatsion sohaning ta'sir jarayonini izchil bosqichlar ko'rinishida tasavvur qilish mumkin, ular maqsadlarni qadriyatlar asosida shakllantirish, bilish faoliyatini faollashtirish, to'siqlarni yengish, refleksiya va o'z-o'zini tartibga solish, shuningdek, ichki va tashqi omillar sinergiyasini o'z ichiga ololadi. Ayni paytda stress, ortiqcha yuklama, maqsadlarning yetarlicha anglanmasligi va motivatsion omillar orasidagi muvozanatsizlik kabi to'siqlar talabalarning o'z-o'zini rivojlantirishga nisbatan motivatsiyasini kamaytirishi mumkin. Shunday qilib, talabalarning ehtiyojli-motivatsion sohasini maqsadli rivojlantirish ta'lim tizimining muhim vazifasiga aylanmoqda, ularning yangi sharoitlarga moslashish va global ta'lim jarayonida samarali ishtirok etish uchun tayyorlashga yordam beradi.

Ehtiyojli-motivatsion sohani intellektual mobillikni rivojlantirish menejmenti nuqtai nazaridan optimallashtirish, zamonaviy resurslardan barcha foydalanishi, innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash va gorizontol o'zaro ta'sirni o'z ichiga olgan motivatsion ta'lim muhitini yaratishni taqozo qiladi. Bunda asosiy vositalar sifatida maqsadlarni anglash, tanqidiy fikrlash, yumshoq ko'nikmalar va emosional chidamlilikni rivojlantirishga qaratilgan motivatsion dasturlar va treninglar xizmat qiladi. Bunda pedagogik treningga alohida e'tibor qaratiladi, chunki u talabalarning shaxsiy va kasbiy jihatdan o'z-o'zini belgilab olishi, barqaror ichki motivatsiyaning shakllanishi, ta'limiy va kasbiy makonning o'zgarib turadigan sharoitlariga moslashishga ko'maklashadi.

Dissertatsiya tadqiqot doirasida, oliy ta'limni xalqarolashtirish sharoitlarida talaba-yoshlarning intellektual mobilligini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik trening dasturi ishlab chiqilgan bo'lib, u talabalar shaxsining ehtiyojli-motivatsion komponentini shakllantirishga qaratilgan trening mashg'ulotlarining strukturalashgan tizimini ifodalaydi. Dastur asosini muvaffaqiyatga bo'lgan motivatsiya, informasion faollik, kasbiy o'z-o'zini rivojlantirish, mustaqil bo'lishga ehtiyoj va kasbiy qiziqishlarni shakllantirishlarni o'z ichiga olgan asosiy jihatlar tashkil qiladi. Dastur zamonaviy pedagogik yondashuvlar va tamoyillarni hisobga olgan holda qurilgan, ularga quyidagilar kiradi, masalan, talabalarning faol ishtiroki, amaliyotga yo'nalganlik, individuallashtirish, ilmiylik, emosional jihatdan jalb qilinganlik, tizimlilik va egiluvchanlik. Trening davomida turli xil interfaol usullar, jumladan, rolli o'yinlar, miya hujumi, guruh muhokamalari va real kasbiy vaziyatlarni modellashtirish usullaridan foydalanilgan.

Dastur 10 haftaga mo'ljallangan, har hafta 10-12 kishilik guruhlarda 160 daqiqagacha davom etadigan mashg'ulotlar o'tkaziladi, bu har bir ishtirokchining yuqori darajada jalb etilishini ta'minlaydi. Har bir mashg'ulotning tuzilishi uchta asosiy bosqichni o'z ichiga oladi, bular: kichik ma'ruzali kirish qismi, amaliy trening mashqlari o'tkaziladigan asosiy qismi hamda refleksiya va qayta aloqa amalga oshiriladigan yakuniy qismi. Treningning asosiy metodikalariga quyidagi qadriyatlarni anglash, kasbiy maqsadlarni qo'yish va o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan mashqlarni kiritish mumkin, bular: "Qiziqishlar doirasi", "Muvaffaqiyat g'ildiragi", "Muvaffaqiyat zinasini", "Karyera puzli", "Muvaffaqiyatni vizuallashtirish doskasi" va boshqalar iborat.

Oliy ta'limni xalqarolashtirish sharoitlarida talabalar intellektual mobilligini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik trening dasturining samaradorligi tajriba-sinov (152 kishi) va nazorat (162 kishi) guruhlariga bo'lingan 314 talabadan iborat tanlamada o'tkazilgan tajriba-sinov tadqiqot bilan tasdiqlandi (6-rasm).



**6-rasm. Tajriba-sinov tadqiqotida tajriba va nazorat guruhlarining miqdoriy tavsifi (n=314)**

Ma'lumotlarning tahlili tajriba guruhida o'tkazilgan treningdan so'ng muvaffaqiyatga bo'lgan motivatsiya 5,92% (9 kishi) dan 45,39% (69 kishi) ga oshganini, nazorat guruhida esa o'zgarishlar juda kam bo'lganini (8,02% dan 9,88% gacha) ko'rsatdi. Kommunikativ motivatsiya tajriba guruhida 19,08% (29 kishi) dan 50,00% (76 kishi) ga oshgan, nazorat guruhida esa o'sish faqat 2,47% ni tashkil etdi (19,75% dan 22,22% gacha).

Mustaqillik, erkinlik va o'z-o'zini takomillashtirishga bo'lgan ehtiyoj tajriba guruhida 4,61% (7 kishi) dan 39,47% (60 kishi) ga oshdi, nazorat guruhida esa bu ko'rsatkich faqat 10,49% (17 kishi) ga oshgan. Tajriba guruhidagi talabalar orasida ijodiy faoliyatga qiziqish 21,71% (33 kishi) dan 77,63% (118 kishi) ga oshdi, nazorat guruhida esa bu ko'rsatkich deyarli o'zgarmadi (41,36% dan 42,59% gacha). Tadqiqot davomida tajriba guruhida muvaffaqiyatsizlikka bo'lgan motivatsiyaning sezilarli darajada pasayishi qayd etildi – 38,16% (58 kishi) dan 5,92% (9 kishi) ga, nazorat guruhida esa bu ko'rsatkich faqat 4,94% ga kamaydi (34,57% dan 29,63% gacha) (2-jadval).

2-jadval

Pedagogik diagnostika natijalarini belgi uchrashining chastotasi bo'yicha pedagogik trening o'tkazilishidan oldin va keyin amalga oshirilgan tahlili (n=314)

	Birinci tekshiruv (pedagogik treningdan oldin)				Ikkinchi tekshiruv (pedagogik treningdan so'ng)						
	Tajriba guruhi miqdori	Nazorat guruhi % da	miqdori	jami	Tajriba guruhi miqdori	Nazorat guruhi % da	miqdori	jami			
<b>A. A. Reanning muvaffaqiyatga motivatsiya va muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqish so'rovnomasi</b>											
muvaffaqiyatsizlikga motivatsiya	58	38,16	56	114	36,31	9	5,92	48	29,63	57	18,15
motivatsiya qutbi yorqin ifodalangan	85	55,92	93	178	56,69	74	48,68	98	60,49	172	54,78
muvaffaqiyatga motivatsiya	9	5,92	13	22	7,01	69	45,39	16	9,88	85	27,07
jami	152	48,41	162	314	100	152	48,41	162	51,59	314	100,00
<b>Y.N.Dolgovning axborotga oid faollikning motivatsion tuzilishi so'rovnomasi</b>											
<b>kommunikativ motivatsiya</b>											
motivatsiyaning ustunligi	29	19,08	32	61	19,43	76	50,00	36	22,22	112	35,67
o'rtacha darajada ifodalanganligi	76	50,00	76	152	48,41	48	31,58	73	45,06	121	38,54
kuchsiz ifodalanganligi	44	28,95	49	93	29,62	27	17,76	46	28,40	73	23,25
juda kuchsiz ifodalanganligi	3	1,97	5	8	2,55	1	0,66	7	4,32	8	2,55
jami	152	48,41	162	314	100,00	152	48,41	162	51,59	314	100,00
<b>bo'shshish motivatsiyasi</b>											
motivatsiyaning ustunligi	47	30,92	32	79	25,16	82	53,95	36	22,22	118	37,58
o'rtacha darajada ifodalanganligi	43	28,29	74	117	37,26	34	22,37	75	46,30	109	34,71
kuchsiz ifodalanganligi	57	37,50	52	109	34,71	35	23,03	47	29,01	82	26,11

	Birinchi tekshiruv (pedagogik treningdan oldin)						Ikkinchi tekshiruv (pedagogik treningdan so'ng)					
	Tajriba guruhi		Nazorat guruhi		jami		Tajriba guruhi		Nazorat guruhi		jami	
	miqdori	% da	miqdori	% da	miqdori	% da	miqdori	% da	miqdori	% da	miqdori	% da
juda kuchsiz ifodalanganligi	5	3,29	4	2,47	9	2,87	1	0,66	4	2,47	5	1,59
jami	152	48,41	162	51,59	314	100,00	152	48,41	162	51,59	314	100,00
bilishga motivatsiya												
motivatsiyaning ustunligi	39	25,66	35	21,60	74	23,57	63	41,45	38	23,46	101	32,17
o'rtacha darajada ifodalanganligi	55	36,18	73	45,06	128	40,76	78	51,32	71	43,83	149	47,45
kuchsiz ifodalanganligi	53	34,87	50	30,86	103	32,80	9	5,92	50	30,86	59	18,79
juda kuchsiz ifodalanganligi	5	3,29	4	2,47	9	2,87	2	1,32	3	1,85	5	1,59
jami	152	48,41	162	51,59	314	100,00	152	48,41	162	51,59	314	100,00
qayta faollashtiruvchi motivatsiya												
motivatsiyaning ustunligi	10	6,58	39	24,07	49	15,61	60	39,47	40	24,69	100	31,85
o'rtacha darajada ifodalanganligi	110	72,37	66	40,74	176	56,05	83	54,61	67	41,36	150	47,77
kuchsiz ifodalanganligi	30	19,74	52	32,10	82	26,11	8	5,26	51	31,48	59	18,79
juda kuchsiz ifodalanganligi	2	1,32	5	3,09	7	2,23	1	0,66	4	2,47	5	1,59
jami	152	48,41	162	51,59	314	100,00	152	48,41	162	51,59	314	100,00
kompensator motivatsiya												
motivatsiyaning ustunligi	53	34,87	54	33,33	107	34,08	72	47,37	55	33,95	127	40,45
o'rtacha darajada ifodalanganligi	35	23,03	36	22,22	71	22,61	64	42,11	31	19,14	95	30,25

	Birinchii tekshiruv (pedagogik treningdan oldin)						Ikkinchi tekshiruv (pedagogik treningdan so'ng)					
	Tajriba guruhi		Nazorat guruhi		jami		Tajriba guruhi		Nazorat guruhi		jami	
	miqdori	% da	miqdori	% da	miqdori	% da	miqdori	% da	miqdori	% da	miqdori	% da
kuchsiz ifodalanganligi	58	38,16	65	40,12	123	39,17	14	9,21	70	43,21	84	26,75
juda kuchsiz ifodalanganligi	6	3,95	7	4,32	13	4,14	2	1,32	6	3,70	8	2,55
jami	152	48,41	162	51,59	314	100,00	152	48,41	162	51,59	314	100,00
<b>S.Ritchining shaxs motivatsiyasi yo'nalishining so'rovnomasi</b>												
shaxsning mustaqil bo'lish va o'z-o'zini kamolga yetkaziga ehtiyoji												
o'rtacha darajadan yuqori	7	4,61	7	4,32	14	4,46	60	39,47	17	10,49	77	24,52
o'rtacha daraja	138	90,79	149	91,98	287	91,40	90	59,21	142	87,65	232	73,89
o'rtacha darajadan past	7	4,61	6	3,70	13	4,14	2	1,32	3	1,85	5	1,59
jami	152	48,41	162	51,59	314	100,00	152	48,41	162	51,59	314	100,00
<b>I.L.Solomimning kasbiy qiziqishlari va qobiliyatlarini baholash bo'yicha so'rovnomasi</b>												
bajarishga oid												
o'rtacha darajadan past	37	24,34	31	19,14	68	21,66	22	14,47	31	19,14	53	16,88
o'rtacha daraja	85	55,92	103	63,58	188	59,87	111	73,03	107	66,05	218	69,43
o'rtacha darajadan yuqori	30	19,74	28	17,28	58	18,47	19	12,50	24	14,81	43	13,69
jami	152	48,41	162	51,59	314	100,00	152	48,41	162	51,59	314	100,00
ijodiy												
o'rtacha darajadan past	14	9,21	63	38,89	77	24,52	2	1,32	52	32,10	54	17,20
o'rtacha daraja	105	69,08	32	19,75	137	43,63	32	21,05	41	25,31	73	23,25
o'rtacha darajadan yuqori	33	21,71	67	41,36	100	31,85	118	77,63	69	42,59	187	59,55
jami	152	48,41	162	51,59	314	100,00	152	48,41	162	51,59	314	100,00

Taklif qilingan pedagogik treningni qo'llash natijasida zamonaviy talaba-yoshlar intellektual mobilligining ehtiyojli-motivasion tarkibiy komponentida yuzaga kelgan va yuqorida ajratib ko'rsatilgan o'zgarishlar bog'langan tanlamalar uchun Vilkoksonning noparametrik T-mezoni bo'yicha qilingan qiyosiy tahlil natijasida statistik jihatdan ham tasdiqlanadi.

Umuman olganda, pedagogik trening talabalar intellektual mobilligining rivojlantirishda yuqori samaradorlikni ko'rsatdi, ularning muvaffaqiyatga bo'lgan motivatsiyasini, kasbiy faolligini, o'z-o'zini rivojlantirish ehtiyojini va ta'limning xalqarolashtirish sharoitlariga moslashuvini rag'batlantirgan, bunday yaxshilanishlar an'anaviy ta'limda kuzatilmadi.

## XULOSA

O'tkazilgan dissertatsiya tadqiqoti quyidagi asosiy xulosalarni chiqarish imkonini beradi:

1. Ko'rib chiqilayotgan muammoga qiziqish birinchi navbatda harakatchanlik tushunchasini anglanishining o'zgarishi bilan bog'liq bo'lib, intellektual mobillik mohiyatini tushunishda qo'yiladigan urg'uning uni intellektual migratsiya, fikr va g'oyalar bilan almashish deb anglanilishidan, uni shaxs mobilligining asosiga aylanib borayotgan asosan shaxs tavsifi, zamonaviy mutaxassis hayoti va faoliyatining turli sohalarida namoyon bo'lishi mumkin bo'lgan yuqori darajali kompleks sifat deb tushunishning maqsadga muvofiqligi asoslab berilgan.

2. Talaba-yoshlar intellektual mobilligi deganda integratsiyalangan shaxsda yuzaga keladigan shunday hosilani tushunish maqsadga muvofiqdirki, unga ko'ra, u o'sib borayotgan axborot oqimida kerakli ma'lumotlarni operativ ravishda izlab topish, uni tahlil qilish va unumli qo'llashga, yangi g'oyalarni generatsiya qilish, yangi narsalarni tolerantlik bilan qabul qilish, ham reproduktiv, ham ijodiy xarakterga ega vazifalarni samarali usullarini optimal ravishda tanlash, intellektual faoliyatning turlari va shakllarini, uning natijadorligini kamaytirmasdan turib, optimal vaqt ichida o'zgartirishga tayyorligi tavsiflangan.

3. Oliy ta'limni xalqarolashtirishga oid tadqiqotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda mazkur muammo rivojlanishning ustuvor yo'nalishiga aylanmoqda, buning natijasida oliy ta'lim muassasalari ta'lim faoliyatining barcha sub'ektlarida ko'p madaniyatlilikka oid kompetentlik shakllanmoqda, bu esa ularga globallashtirish jamiyatning siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, ilmiy va madaniy makonida muvaffaqiyatli faoliyat yuritish imkonini bergan.

4. Tadqiqot jarayonida oliy ta'limni xalqarolashtirish sharoitida intellektual harakatchanlikni rivojlantirish menejmenti mexanizmlarini takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlari ta'limni rivojlantirish va raqamlashtirishning zamonaviy tendensiyalarini integratsiya qilish orqali talabalarning kognitiv, kreativ va moslashuvchanlik kompetensiyalarini o'z ichiga olgan bilimlarni tezkor o'zlashtirish va moslashtirish qobiliyatlarini kengaytirishga ustuvorlik berish asosida aniqlangan, bunda oliy ta'limni xalqarolashtirish sharoitida intellektual harakatchanlikni rivojlantirish menejmenti mexanizmlari talabalarning akademik mobilligi, transmilliy ta'lim hamkorligi va raqamli ta'lim ekotizimiga

integratsiyasini kuchaytirishga qaratilgan strategik boshqaruv va akademik hamkorlik modellarini joriy etish orqali aniqlashtirilgan.

5. O'rganilayotgan mavzu bo'yicha zamonaviy pedagogik tadqiqotlarni tahlil qilish va umumlashtirish shuni ko'rsatadiki, ta'lim oluvchilarning intellektual mobilligini rivojlantirishning muvaffaqiyati muhim darajada ularning ijodiy salohiyati bilan belgilanadi, bu ularning fikrlash jarayonlarining sifatiga ta'sir ko'rsatadi, nostandart vaziyatlarda turli g'oyalarni ishlab chiqishni rag'ballantirishi dalillangan. Shu sababdan tadqiqotlarimiz davomida intellektual harakatchanlikni rivojlantirish menejmentining ko'p darajali modeli kredit-modul tizimida o'quv faoliyati ko'rsatkichlarini muvofiqlashtirishga asoslangan tayanch metodologik, mazmuniy-protsessual va nazorat-diaagnostika komponentlari tarkibiga kompetensiyaviy indikatorlar, raqamli monitoring va ta'lim analitikasi mexanizmlarini yakuniy baholash vositalari sifatida kiritish asosida takomillashtirilgan.

6. Olingan tadqiqot natijalari oliy ta'limni xalqarolashtirish sharoitlarida zamonaviy talaba-yoshlarining intellektual mobilligini rivojlantirishning konseptual asoslarini tayyorlashga imkon berdi, uning doirasida uchta quyi tizimlar ajratib ko'rsatildi, bular: metodologik quyi tizim g'oyalar, qonuniyatlar, maqsadlar, tamoyillar va boshqalarning bir butunlikda birlashishini nazarda tutadi va intellektual mobillikni rivojlantirish jarayonining nazariy asosini tashkil etgan.

7. Tajriba-sinov ishlari natijasida talabalarning intellektual harakatchanligini rivojlantirish menejmentini takomillashtirish bo'yicha metodik tavsiyalar innovatsiyalar, gorizontal hamkorlik, tanqidiy fikrlash, yumshoq ko'nikmalar va hissiy barqarorlikni ustuvor qo'llab-quvvatlovchi motivatsion ta'lim muhitini yaratishga sinergetik yondashuvni inobatga olgan holda ishlab chiqilgan. Bunda, oliy ta'limda intellektual harakatchanlikni rivojlantirish menejmentining diagnostik vositalari xalqaro akkreditatsiya talablariga uyg'un shakllantirilgan transmilliy kompetensiyalar, kognitiv moslashuvchanlik va madaniyatlararo muloqot qobiliyatlarini rivojlanganlik darajasini ta'lim natijalarini baholashning integrativ mezonlari orqali aniqlashtirishga asoslangan platforma sifatida ishlab chiqilgan.

8. Aniqlangan rivojlanish jarayonining konseptual asoslari hamda o'rganilayotgan fenomenning komponentli tuzilmasi oliy ta'limni xalqarolashtirish sharoitida zamonaviy talabalarning intellektual mobilligini rivojlantirishning ko'p darajali modelini ishlab chiqish imkonini berdi. Transmilliy kompetensiyalar, kognitiv moslashuvchanlik va madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarini shakllantirishga doir metodologik yondashuvlarni inobatga olgan holda intellektual mobillikni boshqarishning diagnostik vositalari ishlab chiqildi va aprobatsiyadan o'tkazildi. Mazkur jarayon "Registrator ofisi" tarkibiy bo'linmasining tashkiliy-boshqaruv mexanizmlari va vazifalarini belgilash, kompetensiyaviy diagnostik indikatorlardan foydalanish, shuningdek, ta'lim analitikasi hamda adaptiv boshqaruv texnologiyalarini joriy etish asosida takomillashtirilgan.

9. Tadqiqotlar bo'yicha olingan natijalar oliy ta'limni xalqarolashtirish sharoitlarida intellektual mobillikni rivojlantirish boshqaruv modelini tayyorlashga imkon berdi. Mazmuniga ko'ra model oliy ta'limni xalqarolashtirish sharoitlarida

talaba-yoshlar intellektual mobilligini ta'sirchan ravishda rivojlantirish uchun boshqariladigan muhit yaratishga qaratilgan tizimli tuzilishga ega bo'lib, modelning amaliy amalga oshirilishi tizimli yondashuvni, institutsional, talabalik va xalqaro darajalarda muvofiqlashtirishni, shuningdek, resurslar va motivatsiya mexanizmlaridan samarali foydalanishni, ya'ni ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarining kelishilgan harakatlari va xalqaro darajada faol hamkorlikni talab qilishi ko'rsatib berilgan.

10. Ma'lumotlarning tahlili tajriba guruhida o'tkazilgan treningdan so'ng muvaffaqiyatga bo'lgan motivatsiya 5,92% (9 kishi) dan 45,39% (69 kishi) ga oshganini, nazorat guruhida esa o'zgarishlar juda kam bo'lganini (8,02% dan 9,88% gacha) ko'rsatdi. Kommunikativ motivatsiya tajriba guruhida 19,08% (29 kishi) dan 50,00% (76 kishi) ga oshgan, nazorat guruhida esa o'sish faqat 2,47% ni tashkil etdi (19,75% dan 22,22% gacha).

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПРИ НАУЧНОМ СОВЕТЕ PhD.  
03/2025.27.12. Ped. 33.01\_ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ  
ПРИ ИНСТИТУТЕ ПОВЫШЕНИЯ КВАЛИФИКАЦИИ И  
ПЕРЕПОДГОТОВКИ КАДРОВ СИСТЕМЫ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ**

---

**ИНСТИТУТ ПЕРЕПОДГОТОВКИ И ПОВЫШЕНИЯ  
КВАЛИФИКАЦИИ КАДРОВ СИСТЕМЫ ВЫСШЕГО  
ОБРАЗОВАНИЯ**

**МАТНАЗАРОВА МЕХРИБОН БАХТИЯРОВНА**

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ МЕНЕДЖМЕНТА  
РАЗВИТИЯ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ МОБИЛЬНОСТИ В УСЛОВИЯХ  
ИНТЕРНАЦИОНАЛИЗАЦИИ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ**

**13.00.07 - Менеджмент в образовании**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ  
ДОКТОРА(DSc) ПО ПЕДАГОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Ташкент – 2026**

Тема диссертации доктора наук (DSc) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2024.4DSc/Ped1033

Диссертация выполнена в Институте переподготовки и повышения квалификации кадров системы высшего образования.

Автореферат диссертации размещён на трёх (узбекском, русском, английском (резюме)) языках на веб-странице Научного совета ([www.vocedu.uz](http://www.vocedu.uz)) и информационно-образовательном портале "Ziynet" [www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz).

**Научный консультант:**

**Бегимкулов Узокбой Шонмкулович**  
доктор педагогических наук, профессор

**Официальные оппоненты:**

**Джураев Рисбай Хайдарович**  
доктор педагогических наук, академик

**Исмаилова Зухра Карабаевна**  
доктор педагогических наук, профессор

**Адилов Бахтиёр Рахмонович**  
доктор педагогических наук, профессор

**Ведущая организация:**

**Центр исследований развития  
высшего образования при  
Министерстве высшего образования,  
науки и инноваций Республики  
Узбекистан**

Защита диссертации состоится на заседании разового Научного совета при научном совете PhD. 03/2025.27.12. Ped. 33.01 по присуждению ученых степеней при Институте повышения квалификации и переподготовки кадров системы высшего образования *28.04.2026* года в *14:30* часов (Адрес: 100095, город Ташкент, Алмазарский район, улица Зие, дом 3. Тел.: (99871) 202-01-20, faks: (99871) 202-01-21; e-mail: [info@bimm.uz](mailto:info@bimm.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Института повышения квалификации и переподготовки кадров системы высшего образования (зарегистрирована за номером *31*). Адрес: 100095, город Ташкент, Алмазарский район, улица Зие, дом 3. Тел.: (99871) 202-01-20, faks: (99871) 202-01-21; e-mail: [info@bimm.uz](mailto:info@bimm.uz)

Автореферат диссертации разослан *23 апреля* 2026 года  
(реестр протокола № *4* от *апрель* 2026 года).



**Ш.К. Марлонов**

член Научного совета по присуждению ученых степеней, д.п.н., профессор

**Д.А. Мустафоева**

член Научного совета по присуждению ученых степеней, д.п.н., профессор

**Ф.Р. Юзликбаев**

член научного семинара Научного совета по присуждению ученых степеней, д.п.н., профессор

## ВВЕДЕНИЕ (аннотация докторской диссертации (DSc))

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В условиях интернационализации высшего образования в мировых образовательных учреждениях механизмы управления развитием интеллектуальной мобильности внедряются в практику на основе передовых технологий. В программах ЮНЕСКО и Международной ассоциации университетов (IAU) отмечается необходимость повышения эффективности посредством применения образовательных технологий<sup>1</sup>, в связи с чем ведётся системная работа, направленная на организацию образовательных процессов на основе современных подходов, внедрение альтернативных механизмов управления образовательными учреждениями и совершенствование процесса подготовки специалистов. В качестве ключевого фактора повышения конкурентоспособности системы образования совершенствуется переход от традиционных методов обучения к мобильной и активной образовательной среде, основанной на цифровых технологиях и принципах глобального гражданства. Реализуются системные меры по адаптации к тенденциям глобализации и интернационализации высшего образования, а также к требованиям знаний и инновационного рынка труда, включая развитие интеллектуальной мобильности.

В мире широко проводятся исследования, направленные на развитие интеллектуальной мобильности студентов, трансформацию знаний и навыков, интеграцию в международное образовательное и научное пространство, развитие креативного и критического мышления, а также эффективное управление межкультурной коммуникацией и взаимодействием. Особое внимание уделяется интернационализации высшего образования, выявлению мотивации студентов к самостоятельной работе, изучению взаимосвязи между интеллектуальной мобильностью и мотивацией, анализу тенденций академической мобильности в рамках транснационального сотрудничества и обеспечению адаптации к глобальному образовательному пространству.

В последние годы в республике разрабатываются правовые основы признания иностранных дипломов, совершенствуются модели участия в международных образовательных системах и управления процессами интернационализации высшего образования. Создаются условия для повышения интеллектуальной мобильности студенческой молодёжи, а интеграция в мировое образовательное сообщество и повышение международной конкурентоспособности национальных высших учебных заведений определены как приоритетные задачи<sup>2</sup>. В этой связи расширяются педагогические возможности оптимизации процессов развития

---

<sup>1</sup> IN FOCUS Universities and Agenda 2030: Engaging with the SDGs / IAU 2019 CONFERENCE / Transforming Higher Education for the Future. Vol.24 №1 \* IAU HORIZONS. [https://iauaiu.net/IMG/pdf/iau\\_horizons\\_vol.24.1\\_en\\_light\\_.pdf](https://iauaiu.net/IMG/pdf/iau_horizons_vol.24.1_en_light_.pdf)

<sup>2</sup> Указ Президента Республики Узбекистан, от 08.10.2019 г. № УП-5847 «О Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года»/<https://lex.uz/ru/docs/4545887>

интеллектуальной мобильности, определения перспективных механизмов управления высшими учебными заведениями, а также развития цифровизированной и гибкой инфраструктуры, соответствующей передовому опыту и потребностям образовательного рынка.

Данное диссертационное исследование реализует задачи, определённые рядом нормативно-правовых актов Республики Узбекистан, направленных на развитие образования, науки и системы управления высшими учебными заведениями. Среди них особо значимы: Указ Президента Республики Узбекистан №УП-60 от 28 января 2022 года «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы», №УП-6108 от 6 ноября 2020 года «О мерах по дальнейшему развитию сферы образования, воспитания и науки», №УП-6097 от 29 октября 2020 года «Об утверждении концепции развития науки до 2030 года», а также постановления, регулирующие реформирование управления в сфере высшего и среднего специального образования. Эти нормативные документы создают правовую и организационную основу для внедрения современных механизмов менеджмента интеллектуальной мобильности и обеспечивают научно-практическую значимость настоящего исследования.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий в республике.** Диссертация выполнена в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Пути формирования и реализации системы инновационных идей в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовном и образовательном развитии информированного общества и демократического государства».

### **Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации<sup>3</sup>.**

В престижных университетах мира, в частности, МГУ им. М.В. Ломоносова (Россия), Munich University (Германия), Northeastern University Boston (США), Seoul National University (Южная Корея), Regent's University (Великобритания) уделяют особое внимание развитию интеллектуальной мобильности через проектное обучение, цифровизацию образовательной среды, индивидуальные траектории, международные программы обмена и систему управленческой поддержки мобильности.

Результаты этих исследований демонстрируют разнообразные подходы

---

<sup>3</sup> Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации осуществлялся на основе материалов: Московского Государственного университета имени М.Ю. Ломоносова, Россия (<https://www.msu.ru/>); Munich University, Germany <https://www.lmu.de/de/index.html>; Northeastern University Boston, United States of America (<https://www.northeastern.edu/>); Seoul National University, South Korea (<https://www.snu.ac.kr/index.html>); Regents University, the United Kingdom (UK) (<https://www.regents.ac.uk/>); East China Normal University, China (<https://english.ecnu.edu.cn/>); [https://www.uned.ac.cr/ocex/images/stories/SINAES\\_1103\\_%20by%20LJY%201.pdf](https://www.uned.ac.cr/ocex/images/stories/SINAES_1103_%20by%20LJY%201.pdf) Vocational Education and Training in Korea: Achieving the Enhancement of National Competitiveness; <https://translate.yandex.ru/> Исследовательский проект "Имидж современного учителя глазами школьников"; <https://www.coe.int/t/dg4/education/pestalozzi/Source/Documentation/T21/FinRepEn.pdf> The professional image and ethos of teachers-Final report; <https://files.eric.ed.gov/fulltext/EJ940569.pdf> A Chinese Teacher's Perspective on Professional Development in Literacy Education; [https://www.cedefop.europa.eu/Developments in vocational education and training policy in 2015–19](https://www.cedefop.europa.eu/Developments%20in%20vocational%20education%20and%20training%20policy%20in%202015-19); [https://dera.ioe.ac.uk/3426/1/aspect\\_ve\\_-\\_japan.pdf](https://dera.ioe.ac.uk/3426/1/aspect_ve_-_japan.pdf) Aspects of Vocational Education and Training in Japan.

